O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI AJDODLARGA HURMAT VA VATANPARVARLIK TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Jo‘rayeva Rashida Abduraximovna
Namangan davlat pedogogika instituti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) magistranti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23256278

Annotatsiya. Ushbu tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish masalasi yoritilgan. Shuningdek, tarixiy shaxslar va ajdodlar merosini innovatsion vositalar orqali o‘rgatishning o‘quvchilarda ajdodlarga hurmat, vatanparvarlik, o‘qishga qiziqish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich ta’lim, zamonaviy texnologiyalar, sun’iy intellekt, ajdodlar merosi, vatanparvarlik, innovatsion ta’lim, tarixiy shaxslar.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimining asosiy maqsadi shaxsni mustaqil fikrlashga, axborotlarni tahlil qilishga va ulardan samarali foydalanishga qodir etib tarbiyalashdan iborat. Ushbu maqsadga erishishning eng muhim omili esa o‘qish savodxonligi hisoblanadi. O‘qish savodxonligi faqatgina matnni o‘qish tezligi yoki texnikasini emas, balki o‘qilgan ma’lumotni anglash, tahlil qilish, baholash va uni kundalik hayotda qo‘llay olish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Mazkur ta’limiy maqsadlar nafaqat milliy pedagogika doirasida, balki global miqyosda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirish va dars jarayonlarida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish masalasi mustahkam me’yoriy-huquqiy asosga ega. Bugungi kunda yurtimizda ta’lim sohasiga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Bu tizimni isloh qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ham salmoqlidir. Bu tizimda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlar joriy qilish, ta'lim tizimini yuqori va zamon talablariga moslash bo‘yicha amalga oshiralayotgan ishlardan ushbu fikrlarimizni isbotini topishimiz mumkindir. O‘rta va oliy ta'lim uchun sun’iy intellekt (AI) ilovalarini ishlab chiqish va joriy etish o‘quvchilarning fanlarni o‘rganishi va o‘qituvchilarning dars berish usullarini ijobiy tomonga o‘zgartirish imkoniyatlariga ega. Sun’iy intellekt va kompyuter texnologiyalarni ta’lim sohasiga joriy etish zamonaviylashayotgan dunyoning talabiga aylanib bormoqda. Ta’limni raqamlarga ko‘chirish albattaki bu sohani rivojlantirishda o‘z ahamiyatini kasb etadi. Xususan, sun’iy intellektni ta’limning poydevori bo‘lgan Boshlang‘ich ta’limga joriy qilish eng katta yutuqlardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida boshlang‘ich sinf yoshidanoq o‘quvchilarda o‘qishga nisbatan kuchli motivatsiyani shakllantirish hamda ta’limga innovasion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Shuningdek, O‘zbekistonning PIRLS xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishi, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini faqatgina an’anaviy matn o‘qish bilan

cheklamay, xalqaro andozalarga mos didaktik va interaktiv o‘yinlar orqali tashkil etishni taqozo qilmoqda.

Vatanparvarlik-insonning o‘z ona yurtiga, tug‘ulib o‘sgan zaminiga bo‘lgan cheksiz muhabbati, sadoqati va mas’uliyat tuyg‘usidir. Shunday ekan, bolalarning kichik yoshidanoq ya’ni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vatanga muhabbat va vatanparvarlik tuyg‘usining shakllantirish lozim. Ularning qalbida vatan uchun jon fido qilgan ajdodlarimizga mehr uyg‘otishimiz zarur. O‘tmishdagi qahramonlar masalan Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur siymosi orqali ajdodlarga hurmat, ularga munosib voris bo‘lish yo‘llari kichik yoshdagi bolalarga o‘rgatiladi.

Boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarining o‘qishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish va mustahkam bilim poydevorini yaratish davri hisoblanadi. Shu sababli, bu bosqichda o‘qitish jarayonini tashkil etishga bo‘lgan yondashuvni tubdan o‘zgartirish, ya’ni an’anaviy metodlardan voz kechib, innovatsion metodlardan keng foydalanish dolzarb vazifadir. Tarixsiz kelajak bo‘lmaydi shunday ekan, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarixiy shaxslar,allomalar bilan tanishtirish, AI yordamida 1-4 sinf o‘qish savodxonligi darslarida buyuk shaxslarni gavdalantirish, ularnning bosib o‘tgan yo‘llari, bajargan ezgu ishlarini va asarlarini jonlantirish bolalar ruhiga singdirish muhim vazifadir. Xususan,4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligining 4-qismi 2- mavzusi –“Manguga muhrlanganlar” nomini olgan bo‘lib, unda buyuk ajdodimiz Amir Temur va uning tarixiy merosi haqida boy ma’lumotlar va qimmatli materiallar keltirilgan. Ushbu mavzuni o‘rganishda AI yordamida Amir Temurning hayoti, harbiy yurishlari, davlat boshqaruv faoliyati, ilm-fan va mamlakatning madaniyatini Sohibqironning o‘z tilidan eshitish va bevosita ko‘rish o‘quvchilarga darsning mohiyatini anglashiga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish masalasi ilmiy-metodik jihatdan yoritilgan. Tadqiqot davomida boshlang‘ich ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik va interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning o ‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishi hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslangan.

Bu sohani rivojlantirish hamda ta’lim sohasida sun’iy intellektni keng joriy etishimiz ta’lim sohasini davr talabiga moslashimizga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni ishlab chiqish to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. Qodirov S. Boshlang‘ich sinfda o‘qish savodxonligini tuzatish usullari. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2019.
3. Isroilov I. Boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligini yaxshilash. – Farg‘ona: Farg‘ona davlat universiteti, 2021.
4. Jo‘rayeva T. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida o‘zining texnologiyadan yo‘nalish usullari. – Namangan: Namangan davlat pedagogika instituti, 2026.
5. Sobirjonov R.A., Ayupov R.X va boshq. Zamonaviy texnologiyaning imkoniyatlari. – Toshkent: “Media” nashriyoti, 2022

6. Umarjonovna J. R. T. U., Qizi Y. D. T. BOSHLANG ‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA JAMOAVIY ISHLASH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH ORQALI TARBIYALASH YO ‘LLARI //Central Asian Journal of Academic Research. – 2025. – T. 3. – №. 12. – C. 130-133.
7. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Z3KCkAIAAAAJ&citation_for_view=Z3KCkAIAAAAJ:_FxGoFyzp5QC